



Translation and analysis of medical diagnostic lexemes

Makhhuba SHOKIROVA¹

Central Asian Medical University

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 25 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

diagnostics,
medical terms,
morphological method,
equivalent of terms,
translation of terms,
medical phraseology.

ABSTRACT

This article examines the specific aspects of the translation and analysis of medical diagnostic terms in different languages (Uzbek, Russian, French and English). Their details are extensive and complex, including translation steps, lexical and morphological differences, cultural approaches, and methods and approaches in the field of medical diagnosis.

2181-3663/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1-pp86-89>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Tibbiy diagnostikaga oid leksemalarni tarjima va tahlili

Kalit so'zlar:

diagnostika,
tibbiy terminlar,
morfoloqik usul,
terminlar ekvivalenti,
terminlar tarjimasi,
tibbiy frazeologizmlar.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiy diagnostikaga oid terminlarni tarjima qilish va tahlil qilishning turli tillarda (o'zbek, rus, fransuz va ingliz tillari) o'ziga xos jihatlari ko'rib chiqilgan. Ularning tafsilotlari juda keng va murakkab, shu jumladan tarjima bosqichlari, leksik va morfoloqik farqlar, madaniy yondashuvlar kabi tibbiy diagnostika sohasidagi metodlar va yondashuvlar keng yoritib o'tilgan.

Перевод и анализ медицинских диагностических лексем

Ключевые слова:

диагностика,
медицинские термины,
морфологический метод,
эквивалент терминов,
перевод терминов,
медицинская фразеология.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются специфические аспекты перевода и анализа медицинских диагностических терминов на разных языках (узбекском, русском, французском и английском). Их детали обширны и сложны, включая этапы перевода, лексические и морфологические различия, культурные подходы, а также методы и подходы в области медицинской диагностики.

¹ PhD, Associate Professor, Central Asian Medical University. E-mail: shokirovamakhhubakhon@gmail.com

KIRISH

Bizga ma'lumki tibbiy diagnostika terminologiyasi – bu tibbiyot sohasidagi murakkab va aniq atamalar tizimi bo'lib, uning asosiy maqsadi sog'liqni saqlash jarayonini samarali boshqarish, kasalliklarni aniqlash va davolashda to'g'ri va aniq ma'lumotlar taqdim etishdir. Tibbiy terminologiyani tarjima va tahlil qilish jarayonida bir qator muhim jihatlar mavjud. Avvalo, tibbiy terminlarning mantiqiy, ilmiy va madaniy jihatlarini hisobga olish zarur. Bunda, tilning semantik xususiyatlari, aniq so'z birikmalari va tushunchalarning o'zaro bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, tibbiy diagnostika atamalarini tarjima qilishda tibbiyotning turli sohalaridagi mutaxassisliklar, milliy va xalqaro terminologiya tizimlarining farqlari va ularni moslashtirish zarurati ham o'z o'rnini topadi. Ushbu maqola tibbiy diagnostikaga oid terminlarning tarjimasi va tahlili jarayonidagi asosiy xususiyatlarni, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni va ularni bartaraf etish yo'llarini o'rganishga qaratilgan.

Tibbiy diagnostikaga oid terminlarining qiyosiy tahlili va o'ziga xos xususiyatlari quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Terminlarning tarjimasi va ekvivalenti: O'zbek, rus va fransuz tillaridagi tibbiy diagnostikaga oid terminlarining to'g'ri va aniq tarjimasi bir-biriga qanday mos kelishini va ularning lug'aviy tushunchalarini taqqoslashni talab qiladi.

Tibbiy diagnostikaga oid terminlarning tarjimasi va ekvivalenti masalasi tibbiy terminologiyaning bir tilning chegaralaridan chiqib, boshqa tilga o'tganda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini o'rganish bilan bog'liqdir. Bu jarayonning to'g'ri va samarali amalga oshirilishi, tibbiy tilni o'rganayotgan mutaxassislar uchun juda muhim. Quyida bu masala bo'yicha ba'zi asosiy nuqtalarga to'xtalib o'tamiz:

Terminlarning tarjimasi: Tibbiy diagnostika sohasida terminlar odatda maxsus va ilmiy bo'lib, o'zgarmas ma'noga ega bo'ladi. Lekin, turli tillarda mavjud bo'lgan tibbiy diagnostik terminlarni tarjima qilishda ba'zi qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ayrim tillarda, masalan, rus yoki fransuz tilida, an'anaviy tibbiy terminlar o'zlashtirilgan va ko'p hollarda yunon yoki lotin ildizlaridan kelib chiqqan bo'ladi. O'zbek tilida esa, ba'zan ingliz tilidan olingan yangi atamalar qo'llaniladi. Shuning uchun bu tillarda tarjima qilishda o'xshash va o'ziga xos nuqtalar paydo bo'ladi.

Birinchi bosqichdagi tarjima: Bu bosqichda tibbiy diagnostika terminlari dastlab oddiy so'zma-so'z tarjimaga o'tkaziladi. Misol uchun, *hipertoniya* (yuqori qon bosimi) ingliz hamda fransuz tillarida *hypertension*, rus tilida *гипертония* deb atalib, o'zbek tilidagi ekvivalenti bilan o'xshash bo'ladi.

Quyida *gipertoniya* leksemsini o'zbek va fransuz tillaridagi tarjima jarayonida uchraydigan umumiy va xususiy belgilariga to'xtalib o'tamiz.

***Gipertoniya* (yuqori qon bosimi)** – bu qon bosimining barqaror ravishda ko'tarilishi bo'lib, bu holat qon tomirlariga ortiqcha yuklanish va natijada tomirlarida zaruriy o'zgarishlar va xatti-harakatlar ishlab chiqarishiga olib kelishi mumkin.

Ushbu leksemani tahlil jarayonida, uning fransuz va o'zbek tillaridagi tarjimalari va semantik qiyosini to'liq tushunish uchun **integral** va **differentsial** ma'nolarini ham ko'rib chiqishimiz kerak. ***Hypertension*** -fransuz tilidagi termin *gipertoniya* ning to'g'ri tarjimasi hisoblanadi. Bu so'z **hype-** (baland) va **tension** (qon bosimi) dan kelib chiqadi. Fransuz tilida ushbu leksemadagi ma'no asosida **integral ma'no** (ya'ni qon bosimining umumiy yuqori darajasi) va **differentsial ma'no** (ya'ni individual tomirlaridagi bosimning oshishi) mavjud.

Gipertoniya yoki yuqori qon bosimi – o‘zbek tilidagi tavsifi shuningdek umumiy qon bosimining oshishi va bu bilan bog‘liq kasallik yoki holatni anglatadi. Bu so‘z ham **integral** (ya‘ni qon bosimining ko‘tarilishi) va **differentzial** (ya‘ni muayyan shartlarda, masalan, yurak yoki buyraklardan kelib chiqqan yuqori qon bosimi) ma‘nolarni o‘z ichiga oladi.

Semantik (ma‘no) tahlil:

1. Integrall ma‘no:

Bu yerda **gipertoniya** (yuqori qon bosimi) butun organizmdagi qon bosimining umumiy ko‘tarilishini ifodalaydi. Fransuz va o‘zbek tillarida bu tavsiflash uning umumiy holatiga, ya‘ni qon bosimining barqaror va umumiy ko‘tarilishini anglatadi.

2. Differentsial ma‘no:

Differentsial ma‘noda, gipertoniya ma‘lum bir qon tomirlarida (masalan, yurak yoki buyraklarga bog‘liq bo‘lgan) yuqori bosimni, shuningdek muayyan og‘riqlar va ko‘rinishlarni ko‘rsatadi. Bu, turli xil shakllardagi gipertoniya (masalan, buyrak *gipertoniyasi* yoki pnevmoniya *gipertoniyasi*)ni aniqlash va diagnostika qilishda ham muhim.

Masalan, qon bosimining umumiy yuqori darajasi (gipertoniya) ko‘plab simptomlar va belgilar bilan namoyon bo‘lishi mumkin. Ba‘zi bemorlar qon bosimi yuqori bo‘lishiga qaramay hech qanday simptom ko‘rmasligi mumkin (ushbu holat “yashirin gipertoniya” deb ataladi). Biroq, yuqori qon bosimi mavjud bo‘lganda ko‘rinadigan ba‘zi umumiy belgilar quyidagilar bo‘lishi mumkin:

Bosh og‘rig‘i, charchoq, nafas olish yoki yengil nafas qiyinlashuvi, ko‘ngil aynishi yoki qusish, ko‘krak og‘rig‘i, bosh aylanishi yoki muvozanatning yo‘qolishi, burun qonashlari kabilar.

Individual tomirlaridagi bosimning oshishi (masalan, yurak, buyrak, ko‘z yoki boshqa a‘zolaridagi yuqori qon bosimi) turli xil alomatlar va belgilarga olib kelishi mumkin. Qon bosimi oshganda, ba‘zi tomirlar boshqa tomirlarga qaraganda ko‘proq ta’sirlanishi mumkin. Quyida ba‘zi muhim tomirlar va ularning bosimi oshishi bilan bog‘liq belgilarni keltirib o‘tamiz:

Buyrak tomirlaridagi bosimning oshishi (buyrak gipertoniya). *Qonli siydik, shishish.*

Ko‘z tomirlaridagi bosimning oshishi (retinopatiya). *Ko‘rishning buzilishi, ko‘zi qattiq og‘rishi.*

Bosh miya tomirlaridagi bosimning oshishi (insult xavfi). *Bosh aylanishi, Bosh og‘rig‘i, yuzning bir tomoni yoki tana a‘zolarining sustlashuvi*

Xulosa qilib qytganda Integrall ma‘noda gipertoniya va yuqori qon bosimi bu faqat bir kasallikning umumiy belgisi bo‘lib, ayniqsa, yuqori qon bosimini anglatadi. **Differentsial ma‘noda** esa, ushbu termin biror bir organ yoki aniq fiziologik vaziyatdagi qon bosimining oshishiga ishora qiladi.

Ikkinchi bosqichdagi tarjima: Bu bosqichda esa, tarjimaning ma‘lum kontekstdagi ma‘nosi hisobga olinadi. Masalan, *pnevmoniya* so‘zi barcha tillarda bir xil bo‘lsa-da, uni eng yaxshi tushunish uchun uning simptomatik va klinik xususiyatlarini ko‘rsatish zarur.

Tibbiy diagnostika sohasida, bir tilda mavjud bo‘lgan biror terminning boshqa tilda to‘g‘ri ekvivalentini topish juda muhim. Ba‘zan bunday ekvivalentlar to‘g‘ri ishlatilmaydi va noto‘g‘ri tushuncha yoki noaniqlik yuzaga kelishi mumkin.

Absolyut ekvivalentlar: Ayrim hollarda, bir tildagi termin to'g'ri va to'liq tarzda boshqa tilda o'z ekvivalenti bilan ifodalanadi. Misol uchun, (qandli diabet) ingliz, lotin tilida *diabetes mellitus*, fransuz tilida *diabète sucré*, rus tilida *сахарный диабет* kabi bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan barcha tillarda *diabetes* bir xil ma'no va shaklda bo'ladi.

Ishora yoki o'zgartirilgan ekvivalentlar: Ba'zan, bir tilda mavjud bo'lgan tibbiy diagnostika atamasi boshqa tilga moslashtirilganda ma'no va atama shakli o'zgaradi. Bunday vaziyatda, tarjimon tibbiy amaliyotdagi xalqaro standartlarga mos keladigan atama tanlashi zarur. Biror tibbiy diagnostika atamasi boshqa tilda to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinmaydi, balki uning ma'nosi yoki izohi qo'llaniladi. Masalan, *stroke* (miya insulti) ingliz tilida atama bo'lib, fransuz tilida *accident vasculaire cerebral* rus tilida *инсульт*, o'zbek tilida esa *miyaga qon quyilishi* kabi ekvivalentlar ishlatiladi. Faqat ingliz tilida *miyaga qon quyilishi* iborasi alohida tarjimaga ega bo'lib *cerebral hemorrhage* deb ataladi. Terminologiyani ijtimoiy va madaniy farqlari har bir til va madaniyatning tibbiy diagnostikaga bo'lgan yondashuvi farq qiladi, bu esa terminologiyani shakllanishiga ta'sir qiladi. Masalan, rus tilida ba'zi tibbiy atamalar ko'proq madaniy an'analariga asoslanadi, o'zbek tilida esa, yangi, xalqaro yondashuvlar ko'proq qo'llaniladi. Fransuz tilida esa an'anaviy yondashuvlar ko'proq ilmiy asoslangan va ular ko'pincha universal bo'ladi.

XULOSA

Tibbiy diagnostika sohasidagi terminlarni tarjima qilish juda muhim va murakkab jarayon bo'lib, bu nafaqat tibbiy bilimlarni kengaytirishga, balki sog'liqni saqlash sohasida xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Tibbiy terminlarning to'g'ri va aniq tarjimasini bemorlar uchun sifatli tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlashda, shuningdek, tibbiy sohadagi mutaxassislar o'rtasida samarali muloqot olib borishda muhim rol o'ynaydi.

Tarjima jarayonida muhim elementlardan biri – har bir tibbiy terminning o'ziga xosligini hisobga olishdir. Shuning uchun tarjima usullarini tanlashda, ilmiy-texnikaviy aniq ma'nolarni saqlashga harakat qilish kerak. Tibbiy terminlarni tarjima qilishda umumiy so'zlar va atamalarni o'rnatishdan tashqari, tibbiyot tilining o'ziga xosliklarini va madaniy tafovutlarni ham inobatga olish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy diagnostikaga oid terminlarni tarjima qilishda aniq va to'g'ri yondashuv, tibbiyot sohasida samarali va sifatli xizmatlarni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Bu jarayon tibbiy tilni o'zlashtirishda, ilmiy aloqalarni rivojlantirishda va bemorlar uchun yuqori sifatli yordam ko'rsatishda katta ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh. S. Turobov, T. T. Sodiqov. Tibbiy diagnostika asoslari. Toshkent-2004.
2. I. M. Xudoyberdiyev. Tibbiy terminologiya. Toshkent -2002.
3. O. R. Xolmuhamedov. Tibbiy diagnostika va kasalliklar. Toshkent- 2009.
4. J. M. Raxmonov. Chog'ishtirma tahlil va diagnostika. Toshkent -2010.
5. Bonnie F. Fremgen. Medical Terminology: A Living Language. Pearson Education United States-2017.
6. Thomas Lathrop Stedman. Stedman's Medical Dictionary. Wolters Kluwer Health, United States-2016.
7. Z. M. Raxmonov. O'zbek tibbiy terminologiyasi: morfologik va sintaksik tahlil. Toshkent-2012.